



UDK: 811.111+811.512.133:81'27

Shaxnozaxon A. KOMOLOVA,

PhD, katta o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: komolova_shahnoza@mail.ru, ORCID:0009-0001-0584-4355

Toshkent Agrar universiteti dotsenti, PhD G.Tilovova taqrizi asosida

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PAREMIOLOGICAL MINIMUM OF THE GERMAN AND UZBEK PEOPLES (BASED ON THE RESULTS OF A SOCIOLOGICAL SURVEY)

Annotation

This article presents a comparative analysis of the paremiological minimum of the German and Uzbek peoples based on the results of a sociological survey. The main objective of the study is to identify the most widely known, frequently used, and actively employed proverbs and sayings in both cultures and to reveal their linguocultural characteristics. A survey was conducted among respondents from different age and social groups to determine their level of familiarity with paremiological units, the frequency of their use, and the specifics of their interpretation. The findings indicate that universal values such as diligence, family relations, honesty, friendship, and life experience occupy a central place in the paremiological minimum of both German and Uzbek cultures.

Key words: Paremiological minimum, proverbs and sayings, paremiology, German language, Uzbek language, comparative analysis, sociological survey, linguocultural studies, national values, folk wisdom.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКОГО МИНИМУМА НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДОВ (НА ОСНОВЕ РЕЗУЛЬТАТОВ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА)

Аннотация

В данной статье представлен сравнительный анализ паремнологического минимума немецкого и узбекского народов на основе результатов социологического опроса. Основной целью исследования является выявление наиболее известных, часто используемых и активно функционирующих в речи пословиц, и поговорок в обеих культурах, а также раскрытие их лингвокультурологических особенностей. Опрос был проведен среди респондентов различных возрастных и социальных групп с целью определения уровня их знакомства с паремнологическими единицами, частоты их употребления и особенностей их интерпретации. Результаты исследования показывают, что такие общечеловеческие ценности, как трудолюбие, семейные отношения, честность, дружба и жизненный опыт, занимают центральное место в паремнологическом минимуме как немецкой, так и узбекской культур.

Ключевые слова: Паремнологический минимум, пословицы и поговорки, паремнология, немецкий язык, узбекский язык, сравнительный анализ, социологический опрос, лингвокультурология, национальные ценности, народная мудрость.

NEMIS VA O'ZBEK XALQINING PAREMIOLOGIK MINIMUMI TAHLILI (SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis va o'zbek xalqlarining paremiologik minimumi sotsiologik so'rovnoma natijalari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki madaniyatda eng mashhur, eng ko'p qo'llaniladigan va faol nutqda ishlatiladigan maqol hamda matallarni aniqlash, shuningdek, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot doirasida turli yosh va ijtimoiy guruhlariga mansub respondentlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazilib, ularning paremiologik birliklar bilan tanishlik darajasi, ulardan foydalanish chastotasi hamda mazmunini talqin qilish xususiyatlari o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mehnatsevarlik, oilaviy munosabatlar, halollik, do'stlik va hayotiy tajriba kabi umuminsoniy qadriyatlar nemis va o'zbek madaniyatlarining paremiologik minimumida markaziy o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: Paremiologik minimum, maqol va matallar, paremiologiya, nemis tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rovnoma, lingvokulturologiya, milliy qadriyatlar, xalq donishmandligi.

Kirish. Hozirgi kunda tilshunoslikning paremiologiya sohasida keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilayotgan bir davrda xalqning paremiologik fondiga mansub bo'lgan maqol va matallar minimumini aniqlab olish ham ushbu fan oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Paremiologik minimum deganda odatda xalq madaniyatida ma'lum va mashhur bo'lgan maqollar to'plami[1] tushuniladi. Paremiologik minimumni aniqlash uchun xususan, empirik usul ahamiyatli bo'lib, unga ko'ra aholi orasida so'rovnoma o'tkaziladi.

Paremiologiya sohasida ilk bora L. G. Permyakov tomonidan 1970-yillarda rus tilining paremiologik minimumini yaratish maqsadida ikki bosqichli eksperimental tadqiqot o'tkazilgan. Tadqiqotning birinchi bosqichi Moskva

aholisi o'rtasida o'tkazilgan va unda 300 kishi qatnashgan. respondentlarga oldindan tayyorlangan 1500 ta paremiya taqdim etilgan va ularning ichidan notanish maqollar tanlanishi aytilgan[2]. respondentlarning 90% dan ortig'i uchun tanish bo'lgan maqollarning aksariyati Permyakovning o'zi qo'shgan ba'zi boshqa maqollar bilan birgalikda tadqiqotning ikkinchi bosqichi uchun eksperimental korpus bo'lib xizmat qildi. ikkinchi bosqichda 100 ga yaqin ishtirokchi qatnashdi va ularga birinchi bosqichda aniqlangan paremiyalarning bir qismi yozilgan holda, ikkinchi qismini to'ldirish sharti bilan so'rovnoma tarqatildi. Ushbu so'rovnomaning ikkinchi bosqichini o'tkazish orqali halq orasida ko'p qo'llaniladigan paremiyalarning ma'lumlik darajasi aniqlandi. O'z tadqiqotlari natijasi sifatida G.L. Permyakov

1985 yili 229 ta maqoldan iborat paremiologik minimumini, shuningdek, uch yildan so'ng aholi o'rtasida 90%-97,5% ma'lum bo'lgan va keng ko'lamda qo'llaniladigan 361 ta maqol va mataldan iborat paremiologik minimumini nashr etdi. Paremiologik minimum termini ham G.L.Permyakov tomonidan xx asrning 70 – yillarida uning paremiologiyaga bag'ishlangan nazariy ishlarida qo'llanilgan[3].

Mashhur rus paremiolog olimi G. L. Permyakovning empirik tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda 1990 yillarda Piter Grzibek va ruppnext rahbarligi ostida S. baur, K. Klostla keng ko'lamli nemis maqollarining so'rovnomalari asosida o'zlarining qimmatli paremiologik minimumlarini yaratgan. P. Grzibek Sinkendes Kulturgut? Eine empirische Pilotstudie zur Bekanntheit deutscher Sprichwörter[4], P. Grzibek, K.Kristof Grundlagen der empirischen Sprichwortforschung. in:

Proverbium[5], S. Baur., S. Ruppnext, K. Kristof Kennen Kinder heute noch Sprichwörter? Überlegungen zur Altersgrenze in Arbeiten zur empirischen Parömiologie[6]. shular jumlasidandir.

Aholining talabalar, ishchilar va boshqa ijtimoiy qatlamlari orasida nemis paremiolog olimlari tomonidan turli xil tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Hattemer va Sho'yx tomonidan 1983 yilda, V. Mieder tomonidan 1985 yilda navbatdagi empirik tadqiqotlar amalga oshirilgan va natijada haqiqatdan ham qaysi maqollar hozirgi kunda og'zaki va yozma nutqda doimiy qo'llanayotganligi aniqlangan. Ushbu empirik tadqiqot 1322 kishi bilan o'tkazilgan. Ushbu so'rovnomaga ko'ra, eng mashhur yigirmata nemis xalq maqol va matallari aniqlangan[7]. Ular quyidagilar:

№	Nemis xalq maqollari	O'zbekcha ekvivalenti
1	Wer anderen eine Grube gräbt, fällt selbst hinein.	Birovga choh qazisang, o'zing tushasan.
2	Morgenstunde hat Gold im Munde.	Ertalabgi vaqt-naqdgina baxt.
3	Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm.	Olmaning tagiga olma tushadi.
4	Lügen haben kurze Beine.	Yolg'onning - umri qisqa.
5	Reden ist Silber, Schweigen ist Gold.	Gapirish kumush bo'lsa, jim turish oltindir.
6	Was du heute kannst besorgen, verschiebe nicht auf morgen.	Bugungi ishni ertaga qo'yma.
7	wer Zulezt lacht, lacht am besten.	oxirgi kulgan, yaxshi kuladi.
8	man soll den Tag nicht vor dem Abend loben.	Oqshom bo'lmaguncha kunni maqtama.
9	Ehrlich währt am längsten.	xalol pishib chiqar, xarom teshib chiqar.
10	besser den spatz in der Hand als die Taube auf dem Dach.	uzoqdagi quyruqdan, yaqindagi o'pka yaxshi.
11	ohne Fleiß kein Preis.	Toqqa chiqmaguncha do'lana qayda, jondan kechmaguncha jonona qayda.
12	Wer im Glashaus sitzt, soll nicht mit Steinen werfen.	O'zing o'tirgan shoxga bolta urma.
13	Was Hänschen nicht lernt, lernt Hans nimmermehr.	Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir.
14	Was Du nicht willst, das man dir tu', das fug' auch keinem andern zu.	O'zingga ravo ko'rmaganni, boshqaga ham ravo ko'rma. Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa, birovga ur.
15	Wer den Pfennig nicht ehrt, ist des Talers nicht wehrt.	Tiyin qadrini bilmagan, so'm qadrini bilmas.
16	Es ist noch kein Meister vom Himmel gefallen.	Hyech kim onasidan bilag'on bo'lib tug'ilmaydi.
17	Wie man in den wald schreit, so schallt es heraus.	salomga yarasha alik.
18	Einem geschenkten Gaul schaut man nicht ins Maul.	Sovg'aning katta kichigi yo'q. berganning betiga qarama.
19	Wer zu spät kommt, den bestraft das Leben.	*Kechikkanni hayot jazolaydi.
20	Der Krug geht solange zum brunnen, bis er bricht.	Ko'za kunda emas, kunida sinadi.

*O'zbek tiliga muallif tomonidan so'zma-so'z tarjima qilingan.

Nemis xalqi orasida mashhur bo'lgan ushbu maqol va matallarning ba'zilari antik davr, injil va O'rta asrlardan kelganligini ko'rsatadi[8]. Ular shu qadar umumbashariy bo'lib, nafaqat nemis tilida, balki boshqa tillarda ham eng ko'p qo'llaniluvchi maqollardir. Jadvalda 19-raqam ostidagi wer zu spät kommt, den bestraft das Leben maqolmi yoki sitatami ekanligini bilish ham muhimdir. chunki uning muallifi ko'p hollarda matbuot matnlarida M. Gorbachov ekanligi aytiladi. Maqol deb hisoblash uchun sitata xalqchil bo'lishi lozim[9]. Ushbu o'tkazilgan so'rovnomadan shuni anglash lozimki, ushbu sitata allaqachon xalqchil bo'lib, xalq maqoli statusiga erishib bo'lgan va u maqol sifatida hisobga olinadi.

Yuqorida nemis xalqining ijtimoiy hayotidagi vaziyatlarni ifodalovchi eng ko'p tarqalgan yigirmata maqol va matallarni ko'rib chiqdik.

Har qanday filologik, psixologik, sotsiologik hamda madaniy tadqiqotlar eskirgan materiallar asosida emas, balki empirik usullar yordamida aniqlangan mustahkam moddiy asosga ega bo'lishi lozim. Shunday ekan, biz ham tadqiqotimizning amaliy qismi sifatida nemis va o'zbek

So'rovnomaning viloyatlar bo'yicha taqsimoti


xalqining sotsial hayotida tez-tez uchrab turadigan vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan, har ikkala xalqning madaniyatini, milliyiligini va qadriyatlarini o'zida mujassamlagan maqollar minimumini aniqlash, insonlarning nutqida qanday maqollar ko'proq qo'llanilishini belgilab olish hamda shu asosda maqollar minimumini yaratish maqsadida ijtimoiy tarmoq yordamida Germaniya va O'zbekiston aholisining turli xil ijtimoiy qatlamlari o'rtasida sotsiologik so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomada respondentlarning yashash manzili, yoshi, jinsi, maqollardan kundalik hayotda foydalanishi va o'zi bilgan hamda kundalik hayotida tez-tez qo'llaydigan 5 ta maqol yozib qoldirish so'ralgan.

Ijtimoiy tarmoq orqali o'tkazilgan so'rovnomada germaniyaliklardan 108 ta respondent qatnashgan. respondentlar tomonidan yozib qoldirilgan maqollarning umumiy soni 800 tani tashkil etdi.

O'tkazilgan so'rovnomada aholining barcha ijtimoiy qatlam vakillaridan 222 ishtirok etdi. Ulardan har biri kundalik hayotida ko'p qo'llaydigan kamida 5 tadan maqol va matal yozib qoldirgan. So'rovnoma natijalaridan jamlangan maqol va matallar 1110 tani tashkil etdi.

Manzilingiz

222 ОТВЕТА




So'rovnomada respublikamizning barcha viloyatlaridan fuqarolar onlayn ishtirok etishdi. respondentlarning 56 nafari Toshkent shahri, 50 nafari Sirdaryo viloyati va 41 nafari Farg'ona viloyati, 14 nafari Jizzah viloyati, 13 nafari Namangan viloyati, 11 nafari Navoiy

viloyati, 7 nafari xorazm viloyati, 7 nafari Qashqadaryo viloyati, 6 nafari Surxondaryo viloyati, 5 nafari Buxoro viloyati, 5 nafari Andijon viloyati, 5 nafari Samarqand viloyati va 2 nafari Qoraqalpog'iston respublikasi aholisiga to'g'ri keladi.

So'rovnoma respondentlarining jinsi va yoshi bo'yicha ko'rsatkich

Yoshingiz

222 ОТВЕТА



So'rovnoma natijalariga ko'ra, 10-15 yoshlilar 4 kishi, 15-20 yosh 89 nafar, 20-25 yosh 39 nafar, 25-30 yosh 20 kishi, 30-35 yosh 20 nafar, 35-40 yosh 24 nafar, 40-45 yosh 14 nafar, 45-50 yosh 6 nafar, 50 yoshdan yuqori 6 nafarni tashkil etdi. Yosh omili va texnika bilan ishlay olish potensialini hisobga olgan holda, katta yoshli insonlar o'rtasida so'rovnoma og'zaki usulda o'tkazildi va ushbu so'rovnomada 20 kishi ishtirok etdi.

Ushbu jamlangan maqol va matallardan nemis xalqi orasida eng ko'p qo'llanilgan 20 ta paremiya ajratib olindi. Ular quyidagilar:

1.	Aller Anfang ist schwer.
2.	Der frühe Vogel fängt den wurm.
3.	Der Apfel fällt nicht weit von Stamm.
4.	Lügen haben kurze beine.
5.	wissen ist Macht.
6.	Andere Länder, andere Sitten.
7.	Übung macht den Meister.
8.	wer will, der kann.
9.	Eile mit weile.
10.	Morgen, morgen nicht nur heute sagen alle faulen Leute.
11.	Fleißige Hände die Arbeit schnell einende.
12.	Der Appetit kommt beim Essen.
13.	Es ist nicht alles Gold, was glänzt.
14.	Alles vergeht, aber Jesus bleibt.
15.	Fünf Minuten vor der Zeit ist des deutschen Pünktlichkeit.
16.	Erst die Arbeit, dann das Spiel.
17.	Ende gut, alles gut.
18.	Schöne blume steht nicht lange am wege.
19.	Der Fisch stinkt vom Kopf her.
20.	Besser spät, als nie.

O'zbek xalqi orasida eng ko'p qo'llanilgan 20 ta paremiya quyidagilarni tashkil etdi:

	Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.
	Avval o'yla, keyin so'yla.
	Yetti o'lchab bir kes.
	Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.
	Avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq.

	Bir yigitga qirq xunar oz.
	Buzoqni yugurgani somonxonagacha.
	Beshikdan to qabrgacha ilm izla.
	Do'stsiz boshim tuzsiz oshim.
	it xurar – karvon o'tar.
	intilganga tole yor.
	Qari bilganni pari bilmas.
	Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik.
	Mehnat mehnatning tagi rohat.
	Mehmon kelar eshikdan rizqi kelar teshikdan.
	Oltin olma duo ol.
	Olmaning tagiga olma tushadi.
	Oz-oz o'rganib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.
	O'zga yurtida shox bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.
	O'z yurtida o'lan to'shaging.

Ushbu empirik tadqiqotimiz asosida insonlarning paremiyalar haqidagi bilimiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjud degan xulosaga keldik. Asosiy ta'sir etuvchi omil yosh omili bo'lib, yoshi katta odamlar yoshlarga qaraganda ko'proq maqollarni bilishadi. Buning asosiy sababi paremiologik bilim bilan birga hayotiy tajribaning mavjudligidir.

Yoshlar o'rtasida paremiyalarni bilmaslik ularning hayotdagi axloqiy pozitsiyasini aniqlay olmasligiga olib keladi. Asosan maktab yoshidagi respondentlarning bergan javoblari shuni ko'rsatdiki, ular faqat maktab darsligida berilgan maqol va matallardan tashqari paremiyalar haqidagi bilimlarga ega emas. Modomiki, yosh avlod o'z xalqning paremiyalarini maktab darsliklari orqali o'rganar ekan, darsliklarga kiritiladigan paremiyalar miqdorini ko'paytirish o'rinli deb hisoblaymiz va bu orqali yosh avlodning nutqini jozibadorini oshirishda, o'z fikrini aniq, lo'nda ifodalashda qo'llay oladigan paremiyalarga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish mumkin.

Paremiyalar asosan, har bir insonning sotsial hayotining aksi bo'lib, insonlarning yashash muhiti, ularning shahar yoki qishloqda yashashi hamda jinsi ularning paremiologik bilimlariga ta'sir etmaydi. Aksincha, har bir inson nutqida qo'llaydigan paremiya o'sha insonning ijtimoiy turmush sharoitidan darak beradi.

O'tkazilgan so'rovnomada aniqlangan eng qo'p qo'llaniluvchi 20 ta nemis va o'zbek xalq maqollari o'zaro qiyoslanganda, ular o'rtasida mavzu jihatidan universal va farqli jihatlar kuzatildi. Nemis xalqi orasida halollik, mehnat, punktuallik, vaqtni qadrlash, o'zaro munosabatlar, yomonlik va yolg'onchilik kabi mavzularda maqol va matallar ko'p qo'llanilsa, o'zbek xalqining minimumida esa, Vatan, bilim, mehmondo'stlik, yaxshilik, mehnatsevarlik, do'stlik mavzusidagi maqol va matallar tez-tez qo'llanilishi aniqlandi.

Biz L.G.Permyakov paremiologik minimumni yaratish bo'yicha qo'llagan empirik tajribasidan foydalangan holda, eksperimental korpusni shakllantirib oldik, ya'ni o'zbek xalqi orasida ma'lum va mashhur bo'lgan maqol va matallarni aniqlab oldik. Ushbu ishdan asosiy maqsad nemis va o'zbek xalqi uchun maqollar minimumini aniqlashdir.

Xalq orasida mashhur bo'lgan o'zbek xalq paremiyalarining korpusi madaniyatshunoslik yoki lingvistik tadqiqotlarda moddiy asos sifatida foydalanilishi mumkin. Ushbu sa'y-harakatlar o'zbek paremiologiyasi tarixida paremiologik minimumni aniqlash borasida ilk qadam deyilsa bo'ladi. Eksperimental tadqiqot yordamida yig'ib olingan paremiyalar asosida o'zbek tilining paremiologik minimumi nashrga tayyorlandi.

ADABIYOTLAR

1. Baur R.S., Chlosta Ch., Grzybek P. „Bericht. Das Projekt ‚Sprichwörter-Minima im Deutschen und Kroatischen‘: What is worth doing – do it well!“, in: Muttersprache, 2, 1996. –S. 163–164.
2. Grzybek P., Chlosta Ch. „Grundlagen der empirischen Sprichwortforschung“, in: Proverbium, 10; 1993. –S. 108.
3. Котова М.Ю. Славянская паремология. Дисс.док.фил.наук. Санк-Петербург, 2004. –С. 32.
4. Grzybek Peter «Sinkendes Kulturgut? Eine empirische Pilotstudie zur Bekanntheit deutscher Sprichwörter», Wirkendes Wort, 2, 1991. –S. 239-264.
5. Grzybek P., Chlosta Ch. Grundlagen der empirischen Sprichwortforschung. In: Proverbium 10, 1993. –S. 89-128.
6. Rupprecht B., Christoph Ch. Kennen Kinder heute noch Sprichwörter? Überlegungen zur Altersgrenze in Arbeiten zur empirischen Parömiologie. In: Chlosta, Christoph/Grzybek, Peter/Piirainen, Elisabeth (Hg.): Sprachbilder zwischen Theorie und Praxis. Bochum. 1994. –S. 1-30.
7. Wolfgang Mieder. Erschienen in: Steyer Kathrin (Hrsg.): Wortverbindungen – mehr oder weniger fest. Berlin [u.a.]: de Gruyter, 2004. –S. 420.
8. Kim Kun Hwan. Deutsche Sprichwörter im Spiegel der Gesellschaft. Analyse der von Deutschen am häufigsten genannten Sprichwörter. In: Zeitschrift für deutsche Philologie, 1999. –S. 91-92.
9. Kim Kun Hwan. Deutsche Sprichwörter im Spiegel der Gesellschaft. Analyse der von Deutschen am häufigsten genannten Sprichwörter. In: Zeitschrift für deutsche Philologie, 1999. –S. 38.